

**ANIMATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF  
O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING  
NAZARIY METODIK ASOSLARI.**

Mirzomatova Muhayyo Lutfilloyevna

Farg'onah shahar 7-o'rta ta'lif maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada animatsion yondashuvlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni rivojlanirishning nazariy metodik asoslari muhokama qilingan. Ekologik tarbiyaning bolalar tarbiyasidagi o'rni muhim ekanligi haqida fikr yuritilgan. Ekologik madaniyatni rivojlanirishni bir necha metodlari misollar orqali ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologik madaniyat, interaktiv metod, bolalar, tabiat, atrof-muhit, mintaqqa, tarbiya, ekologik faollashuv;

Tabiat bu bizning o'rabi turgan olam ya'ni daraxtlar, gullar, qushlar, hayvonlar, hasharotlardir. Bizni o'rabi turgan bu tabiat biz insonlarning himoyamiga muhtoj. Odamlar daraxtlarning kesilishi, suvning ifloslanishi, hayvonlarni yo'q qilinishi ekologik muamolar kelib chiqadi deb o'ylamaydi. Bunday ko'ngilsiliklarni oldini olish uchun kelajak avlodga yoshligidan ekologik bilimlarni berib borish loim.

Tabiatning odamlar uchun ahamiyati juda katta bo'lib, inson ehtiyojlarini qondirishiga qarab iqtisodiy, ilmiy, sog'lomlashtirish, tarbiyaviy va estetik kabi ahamiyatlarini farqlash mumkin.

Ekologik tarbiya, avvalambor, bolalarni insonparvarlik, xayrixohlik, hissiy munosabat va ularning atrofidagi dunyoga qiziqishini tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero, atrof-muhitni bolaga ta'siri juda katta. Chunki har kuni bolalar u yoki bu shaklda atrof-muhitdagi turli narsalar yoki hodisalar bilan aloqaga kirishadilar ya'ni ular qushlarni, hasharotlarni, hayvonlarni, qishda, qor parchalarini, kuzda, sarg'aygan barglarni, yomg'irni kuzatishadi, tabiat haqidagi she'rlar va hikoyalarni tinglashadi. Tabiat hodisalari, o'simliklarga g'amxo'rlik qilishni o'rganadilar. Tabiat bolalarni birinchi navbatda o'zining go'zalligi, ranglarining yorqinligi, xilma-xilligi bilan o'ziga jalb qiladi. Shu boisdan „Ekologik tarbiya maktabgacha yoshda, maktab davrida, maktabdan keyingi, mahalla, mehnat jamoasi hamda keksalik davrida turlicha mazmun, shakl va metodlar hamda yondashuvlarda amalga oshiriladi“<sup>20</sup>. Bolalar birinchi aniq bilim va tajribani ham shu tabiatdan oladi. Atrof-muhit bilan bunday aloqa, bir tomonidan, bolaning hissiy tajribasini boyitadi, boshqa tomonidan, uning tasavvurini kengaytiradi va bolaning atrof-muhit to'g'risida turli savollari va qiziqishlarini paydo bo'lishiga katta yordam beradi. Bolalar odatda juda qiziquvchan, tabiat hodisalari va narsalariga katta e'tibor bilan qaraydigan bo'ladilar. Bu esa ota-onalar va o'qituvchilar uchun bolani atrof-muhit to'g'risida yanada ko'proq bilim olishlari uchun munosib shart-sharoit yaratib berishni taqozo etadi. Ota-onalar va o'qituvchilar oldida

<sup>20</sup> Nuritdinova M. — „Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi“ || Toshkent, 2005-yil

turgan bunday vazifalar jumlasiga bolalarda atrof-muhit jonli va jonsiz narsalarga bo'lgan muhabbat va hurmat tuyg'usini rivojlantirish, ularning tabiat haqidagi o'z tasavvurlarini boyitish, bolaga nafaqat bilim berish balki o'z hissiyotlarini erkin ifoda etish imkoniyatini berish juda muhimdir. Shu boisdan ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrofmuhitga ijobjiy munosabatni shakllantirish ularni o'zlarini va atrofida sodir bo'layotgan barcha narsani to'g'ri tushunishga o'rgatadi. Bolalarning o'zi mehr va muhabbatga muhtoj. Shu bilan birga, ular barcha jonzotlarga befarq va beqiyos darajada o'zlarining mehrlarini berishga qodirdir. Qani endi ulardagi bu mehroqibatni saqlab qolishni imkoni bo'lsa. Buning uchun avvalo bolalarni tabiatda ham, odamlar orasida ham o'zini to'g'ri tutishga o'rgatish lozim. Bolaning mehribon, sabrtoqatli, tinch va osoyishta bo'lib o'sishi va baxtli bo'lishi uchun biz kattalar bolalik inson hayotining muhim qismi ekanligini esdan chiqarmasligimiz kerak.

Hozirgi kunda barcha insonlarning oldidagi eng katta muammolaridan biri atrof-muhit, tabiatni tabiiy holda saqlashdir. Fan-texnika taraqiyotining rivojlanishi, ishlab chiqarish ortib borib, insonlarning tabiatga nisbatan ehtiyojlari ortgan sari jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqasidagi ziddiyatlar keskinlashuvining sababi bo'lib bormoqda. Bunday ziddiyatli muammolarni oldini olish uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni ekologik madaniyatli va ma'suliyatli qilib tarbiyalash kerak. Yosh avlodda ekologik madaniyatni rivojlantirish jamiyatda shunday masalalarni yuqori darajada amalga oshirish lozim. Yosh avlodning ekologik madaniyati qancha yuqori bo'lsa, tabiatning qonunlarini yaxshi bilsa, ana shundagina tabiatdan foydalana olish madaniyati va ma'suliyatni ham shu qadar yuqoriroq bo'ladi. Bunday ma'suliyatli ishlarni amalga oshirish va bunga erishish uchun ko'proq ma'suliyat pedagog o'qituvchilarning o'tayotgan darslarida o'quvchilar ongida tabiat, tabiat mavjudodlari, inson va tabiat aloqasi, ekologiya va uning maqsadlari haqida tushunchalarni shakillantirishdir. Shunday ekan maktablarda ekologik shart-sharoitlar ekologik ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalarini amalga oshirishda mamlakatimining o'ziga hos hususiyatarini hisobga olgan holda yondashish kerak. Ekologik tarbiyali yoshlarni shakillantirishda o'quvchilar ongida qoluvchi samarali usullardan ekologiyaga bog'langan holda foydalanish kerak.<sup>21</sup>

Ekologik madaniyat degan tushuncha zamirida ayni shu holatlar oqibatini anglash, tabiat vajamiyat qonunlariga mos tarzd hayot kechirish talablari mujassamdir. Ekologik madaniyat ham umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi, uning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Usiz insonni to'la ma'noda madaniyatli, ma'naviyatli deb bo'lmaydi.

Hozirgi paytda atrof-muhitning zararlanishiga odamlarning o'zlarini sababchi bo'lib qolishyapti. Qadimda insonlarni ekologik tarbiya berish maqsadida diniy tomonidan qo'rqitishgan ya'ni "suvga tupurma", "suvga axlat tashlash gunoh bo'ladi" degan gaplarni aytishgan.

O'zbekistonning ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha chora tadbirlar mavjuddir. Birinchi navbatda, ekologik ta'lim tizimini rivojlantirish, ekologik

<sup>21</sup> Ziyomuxammedov B., *Ekologiya va ma'naviyat'*. - T.:Mehnat,1997.

bilimlarni o'qitish va ko'rsatish, shuningdek ekologik tushunchani oshirish va ekologik xavfsizlikga e'tibor berish lozim. Bu o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yanada yaxshilashga, jamiyatda ekologik ta'limni oshirishga yordam beradi.

Ikkinchi navbatda, yashash muhitini saqlash va muhofaza qilishning ahamiyatiga e'tibor berish kerak. Jamiyatning har bir a'zosi o'ziga amaliy ishlarni boshlashi kerak. Suv, havo va tabiatdagi ifloslanishni kamaytirish, oziq-ovqat mahsulotlarini ekologiyaga zarar yetkamasdan ishlab chiqish, ayrim ekologik ximatlarni ko'rsatish va boshqa ko'plab ishlar bu yo'nalishda amaliyotlarni oshirishga yordam beradi.

Uchinchi navbatda, ekologik turizmni rivojlantirish ham muhimdir. O'zbekistonda tabiiy boyliklar ham, turistik joylar ham, madaniy va ijtimoiy turizmni o'z ichiga oladi. Ekologik turizm esa, tabiiy boyliklarni saqlash va muhofaza qilishga, turizm sohasidagi ekologik tushunchani oshirishga yordam beradi. Shuningdek, ekologik madaniyatni oshirish uchun mahalliy tashkilotlar va hukumat organlari o'rtasida ham hamkorlik zarur. Ekologik madaniyatni oshirish uchun mamalakatimining har bir a'zosi, tashkilotlar, ta'lim muassasalari hamkorlik qilish kerak. Ekologik tarbiya albatta ekologik bilim asosida shakillanadi, lekin u o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ekologik tarbiya insonda tabiatga nisbatan to'g'ri oqilona munosabatni shakillantirish masalalari ustida ish olib boradi va o'z oldiga ekologik madaniyatni shakillantirishdek maqsadni qo'yadi. Ekologik tarbiyaning mazmuniga, ekologik onglilik, ekologik his-tuyg'ular kiradi. Shunday qilib, ekologik tarbiya inson hayotida, jamiyatda, vatanda muhim ahamiyat kasb qiladi.<sup>22</sup>

Zamonaviy pedagogikada ekologik bilimlarni rivojlantirish muammozi muhim tamoyillardan biridir. Bu tamoyillar ekologiyani saqlashga oid insoniy javobgarlik tuyg'usi bo'lishi kerak.

Aholining ekologik madaniyatining shakllanishi, shakllanishing boshlanishi bola hayotining birinchi 7-8 yiliga to'g'ri keladi. Boshlang'ich maktab yoshi - bu inson hayotining hal qiluvchi davri, chunki bu yerda atrofdagi dunyoga to'g'ri munosabatda bo'lish asoslari qo'yiladi. Muayyan ekologik g'oyalarni olgan o'quvchilar tabiatga nisbatan ehtiyyotkor bo'ladilar. Kelajakda bu ma'lum bir mintaqada ham, butun mamlakatda ham ekologik vaziyatning yaxshilanishiga ta'sir qilishi mumkin.

Ekologik ta'lim zamonaviy ta'limning o'zagiga aylanib bormoqda va uning zamonaviy tizimlarini va umuman jamiyatni qayta qurishning kalitidir. Shunday qilib, ekologik ta'limning yangi axloqning asosi va odamlarning amaliy hayotining ko'plab masalalarini hal qilishda qo'llab-quvvatlash roli bugungi kunda ayniqsa dolzarbdir. Kichik yoshdagi o'quvchilarni ekologik tarbiyalash o'qituvchining eng muhim vazifasi ekanligi sababli ushbu mavzuning dolzarbliги ortib bormoqda. Boshlang'ich maktab atrof-muhit, jumladan, tabiatshunoslik darsida ekologik ta'limning turli shakllari va usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.,

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublika Qonunlari: „Tabiatni muhofaza qilish to'g'irisida” 1992-y.

Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, svilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoni hal qilishga bog'liqdir.”<sup>23</sup>

Ekologik madaniyatga odamlarning tabiiy muhitga munosib muomla qilishga, o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga, tabiatni saqlash va uni asrash, ekologiyani himoya qilish o'rgatadi.

Ekologik bilim barcha o'quvchilarga bilim va ma'rifat olib kelishda eng muhim qadamlardan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ongiga ekologik madaniyatni singdirish uchun ularni atrof-muhit bilan yaqinroq tanishtirish va tabiatni muhofaza qilishga qiziqishni oshirish , shuningdek , ekologik himoya muammolari bilan bog'liq ko'nikmalarni o'rganish uchun ahamiyatli bo'ladi. O'quvchilarda ekologik madaniyatini rivojlantirish uchun birinchi qadamida tabiat bilan yaqinroq tanishtirish lozim. O'quvchilar tabiatni kuzatish, uni tushunish va qadrini bilish uchun ko'plab imkoniyatlarga ega. Misol uchun tabiatda ko'rindigan turmush tarzini ko'rib chiqish, qushlar, hayvonlar, gullar, suv va o'aro aloqada bo'lgan tabiat tarkibiy komponentlari haqida o'rganish kabi ko'plab tabiatga oid ko'nikmalarni o'rganish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish, tabiatni saqlash va muhofaza qilish va ekologik hayotga qarshi muhitni saqlashga qaratilgan qo'llanishlar to'g'risidagi tushunchalari ortib boradi. O'qituvchilar bunday muammolarni oldini olishda atrof-muhitni qadr-qimmatliliqi, ahamiyati va muhimligi haqid tushunchalar berib borish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatini rivojlantirishimiz uchun ularni turli xil tabiat qo'yniga olib borib kattalar ekologiyaga qanday foyda keltirayotganini ko'rsatib, zarar yetkazishayotgan bo'lsa ularni to'g'ri ish qilmayotganliklarini tushuntirib o'tish lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublika Qonunlari:,,Tabiatni muhofaza qilish to'g'irisida” 1992-y.
2. I.A.Karimov. „O'zbekiston XXI asr busag'asida : xavfsilikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqiyot kafolatlari”.-T.: O'zbekiston, 1997-y.
3. Zaxlebniy A.N Soderjaniye ekologicheskogo obrozovaniye v sredne obrozovatelnoy shkole (teoritecheskoye obosnovaniye i puti realizasii ): avtoref.Diss. ... d-ra ped.Nauk.- 1986. – S.32
4. Ziyamuxamedov B. Maktab o'quvchilarini ekologiya va ekologik tarbiyasi. - T:O'qituvchi, 1998. – S. 15.

<sup>23</sup> I.A.Karimov. „O'zbekiston XXI asr busag'asida : xavfsilikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqiyot kafolatlari”.-T.: O'zbekiston, 1997-y.